

## CHOLG‘U IJROCHILIGINI O‘RGANISHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV

**Sunnatillayev Kamoliddin Namatillo o'g'li**  
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
"Folklor va etnografiya" kafedrasi o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Tadqiq qilingan ilmiy ishda cholg‘u ijrochilagini o‘rganishda kompetensiyaviy yondashuv asosida mavzuni o‘rganishga va to‘laqonli darajada yoritib berishga harakat qilingan. Shuningdek, cholg‘u ijrochilagini o‘rganishda pedagogik mahorat, ta’lim metodidan qanday foydalanish, cholg‘u ijrochiligining zamonaviy usullari, yo‘nalishlari xususida fikr-mulohazalar bildirilgan. Bundan tashqari mavzuni o‘rganishda uning dolzabliligi va ahamiyatini oshirishga oid takliflar keltirib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** cholg‘u ijrochiligi, milliy qo‘schiqchilik, musiqa san’ati, musiqa tarixi, kompetensiya, tadqiqot, ritm, musiqiy sozlar

## КОМПЕТЕНТНЫЙ ПОДХОД К РАБОТЕ С ОБУЧАЕМЫМ ИНСТРУМЕНТОМ

**Суннатиллаев Камолиддин Наматилло ўғли**  
Государственный институт искусства и культуры Ўзбекистана  
Преподаватель кафедры «Фольклор и этнография»

**Аннотация:** В исследуемой научной работе сделана попытка изучить и всесторонне осветить предмет на основе компетентностного подхода к изучению исполнительства на музыкальных инструментах. Кроме того, были высказаны мнения о педагогическом мастерстве, о том, как использовать воспитательные методики, современные методы и направления музыкального исполнительства. Кроме того, есть предложения по повышению актуальности и важности изучения темы.

**Ключевые слова:** музыкальное исполнительство, народное пение, музыкальное искусство, музыкальная история, компетенция, исследование, ритм, музыкальные ноты

## COMPETENT APPROACH TO LEARNING INSTRUMENT PERFORMANCE

**Sunnatillayev Kamoliddin Namatillo uglu**

State Institute of Art and Culture of Uzbekistan

Teacher of "Folklore and Ethnography" department

**Annotation:** In the researched scientific work, an attempt was made to study and fully illuminate the subject based on the competence approach to the study of musical instrument performance. In addition, opinions were expressed about pedagogical skills, how to use educational methods, modern methods and directions of musical performance. In addition, there are suggestions for increasing the relevance and importance of studying the topic.

**Key words:** musical performance, national singing, music art, music history, competence, research, rhythm, musical notes

### **KIRISH.**

O`zbek xalqining bebahohi boyligi hisoblanmish milliy musiqiy cholg`ularimiz o`zining betakrorligi, naqsh bezagining jozibadorligi, ovoztarovatining rang-barangligi va ijro imkoniyatlarining beqiyosligi bilan milliy musiqiy madaniyatimizda alohida o`rin tutadi. Musiqiy cholg`ular azal-azaldan o`zbek xalqining ma`naviy hayotida muhim ahamiyat kasb etib, kundalik turmush tarzi bilan chambarchas bog`lanib ketgan. Ular hozirgi kunda ham kishilar dunyoqarashining shakllanishida o`ziga xos xususiyatlarga ega. Ayniqsa, cholg`u ijrochiligi san`ati ajdodlarimiz tomonidan asrlar davomida noyob estetik vosita sifatida shakllanib, nafaqat musiqa ilmida, balki zamonaviy musiqa ijodiyotidaham

katta qiziqish uyg`otib kelmoqda. Uning barcha o`ziga xos xususiyatlari va qirralarini o`rganish esacholq`u ijrochiligi amaliyotini boyitishga yordam beradi.

Milliy musiqiy sozlarimiz juda qadimiylar va boy tarixga ega. Musiqa san`atida dastlabki zarbli (membranofon) cholg`ular eramizdan oldingi o`n uchinchi ming yillikda paydo bo`lgan. Manbalarda qayd etilishicha, bunday cholg`ular qadimgi mehnat qo`shiqlarining ritmik tuzilishi bilan bevosita bog`liq bo`lgan.<sup>1</sup>

Keyinchalik shovqinli (idiofon) cholg`ular paydo bo`ldi. Ijrochilar qarsak chalib ritmni ta“kidladilar, shovqinli cholg`ular ta`sirini kuchaytirdilar. Ijrochi ayollarning chapak zarblari o`ziga xos takrorlanmas go`zal holatni vujudga keltirar edi. Shu sababli zarblicholq`ular eng qadimgi cholg`u asboblar turiga kiradi. Ularning kelib chiqishi insонning qadam bosishi, mehnat jarayoni, raqs harakatlari ov va ha rbiy yurishlari bilan bog`liq.

Yurtboshimizning "Madaniyat va san'at sohalarini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar" PQ-112-qarorlari aynan shu poydevorni mustahkamlash to'g'risida. Bu qarorga ko'ra har bir mакtab o'quvchisi kamida bitta milliy cholg'uda chalishi, dars o'tayotgan o'qituvchi esa kamida uchta cholg'uda ijro mahoratiga ega bo'lishi lozim.<sup>2</sup> Bu cholg`ularni chalishni o`rganish uchun esa albatta musiqiy savodxonlik zarur. Maktebgaga ilk marotaba kelgan bolaga kitobni tez o'qib berish talab etilmaganidek, musiqani bilmagan bolani qo'liga ham biror- bir asbobni tutqazib chaldirish ahmoqlik nazarimda. Maktebgaga kelgan bolakaylarga avvalo "Alifbe" kitobida harflar tanishtiriladi so'ngra, harflarni sekin-sekin yozish o'rgatiladi. Musiqa darsida ham xuddi shunday. Musiqamizning ham atiga yettiha harfi bo'lishiga qaramay, harflardan keyingi yoki oldingi tinish belgilar musiqa nazariyasi fanida o'tiladi. O'quvchilar bu fanni qanchalik yaxshi o'zlashtirsalar

---

<sup>1</sup> Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan on additional measures for further development of culture and arts PQ-112

<sup>2</sup> A.Petrosyans "Cholg`ushunoslik" 3rd edition T. 2012

cholg'udagi ijroni ham o'rganish shuncha oson kechadi. Shu o'rinda yana savol tug'ilishi mumkin. Musiqa nazariyasi fanining cholg'u ijrochiligi bilan bog'liqligi nimada? Boya aytib o'tganimday bu fanda o'quvchi birinchi bo'lib musiqadagi kalitlar, musiqa alifbosi bo'lgan yettiota nota ya'ni, C (do), D (re), E (mi), F (fa), G (sol), A (lya), H (si) notalarni, musiqadagi barcha terminlarni, oktavalar, intervallar, ladlar va shu kabi kerakli bo'lgan musiqiy iboralarini o'rganadi.

Musiqiy cholg'ular turli xil oktavadagi turli xil notalarga sozlanadi. Cholg'u ijrochisi esa o'z cholg'usini qaysi oktavadagi qaysi notaga sozlanishini yaxshi bilishi lozim. Chalayotgan cholg'usining ovoz diapazoni, ijro etayotgan asarining tonalligi, asarning muallifi kelib chiqish tarixi hammasini cholg'u ijrochisi bilishi lozim. Ushbu ma'lumotlarni esa nazariy fanlardan olish mumkin. Har doim nazariya va amaliyot yonma-yon yurgan. Biz nazariy o'rganganlarmizni amaliyotda qo'llaymiz. Keling so'z isboti bilan diyishadi hozir bir cholg'u sozini nazariya bilan bog'laymiz.

### ADABIYOTLAR TAHLILI:

Har bir sozning kib chiqish tarixi bor bo'lib, rubob prima cholg'usining kelib chiqish tarixi quyidagichadir: 1943-yilda San'atshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti qoshida o'zbek xalq cholg'u so'zlarini takomillashtirish uchun mo'ljallangan tajriba laboratoriyasi ochildi. Unga 1943-1948-yillarda I.Akbarov-direktor, V.Uspenskiy-mudir va A.Petrosyans-ustaxona mudiri etib tayinlandi. Natijada professor A.I.Petrosyans rahbarligida ko'pgina cholg'ular takomillashtirilib qayta ishlandi, cholg'ular oilasi, ularning yangi turlari, shu jumladan ruboblar oilasi ham tajriba sifatida yaratildi. Ya'ni rubob cholg'usi asosida ushbu cholg'uning rubob prima, metsso soprano va alt turlari paydo bo'ldi.<sup>3</sup>

Sozgar usta S.E.Didenko tomonidan ishlangan rubob prima cholg'usi yuqori registrdagи tovushlarga, katta tovush diapazoniga va keng ijrochilik imkoniyatlariغا

<sup>3</sup> A.Tashmatova "Catalog of the Museum of Musical Instruments" "Science" T. 2016

ega bo'lib, mizrob bilan chalinadigan sozlar sirasiga kiradi.<sup>4</sup> Har bir cholg'u ijrochisi o'z cholg'usining kelib chiqish tarixini bilishi lozim deb o'ylayman va cholg'u sozini o'rgatayorgan o'qituvchi ham bunga alohida e'tibor berishi joiz. Cholg'u tarixi o'rganilgandan so'ng uning tuzilishi o'rganiladi. Hozir rubob prima cholg'usining tuzilishi bilan tanishamiz.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI.

«Cholg'u ijrochiligi» fanini o'qitish jarayonida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan, hamda o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruzalar matni, tarqatiluvchi material, elektron o'quv materiallari, audio yozuvlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Talabalarning ushbu fanni o`zlashtirishlari uchun ular turli texnik obyektlar hisoblarini ilg`or va zamonaviy hisob usullarida bajara olishlari, ijro etish ishlarini shaxsiy kompyuterlarda bajara olishlari, informatika va axborot texnologiyalari fanini mukammal o`zlashtirib, yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini tadbiq qilgan holda, mavjud darslik, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar va ko`rgazmali vositalardan unumli foydalanib, dastur tuzishlari hamda uni amalda bajara olishlari kerak. Bunda asosan, talabalar ma'ruzalar matnlarini o'rganish, uni amaliyot ishlari bilan birlgilikda olib borish hamda amaliy mashg`ulotlar materiallarini shaxsiy kompyuterlarda bajarish ko`nikmalarni hosil qilishi kerak. Fanni o'rganishda mashg`ulotlarning ma'ruza, amaliyot mashg`ulotlari, mustaqil ta'lim shakllaridan foydalilanadi va ilg`or pedagogik texnologiyaning zamonaviy elementlari qo'llaniladi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim. Bu ta'lim o'z mohiyatiga ko`ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to`laqonli rivojlantirishni ko`zda tutadi. Bu esa

---

<sup>4</sup> O.Akbarov. "Pedagogical practice" "Istiqlol" T. 2015

ta'limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lim oquvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog`liq o`qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondashilishni nazarda tutadi.

Tizimli yondashuv. Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o`zida mujassam etmog'i lozim: jarayonning mantiqiyligi, uning barcha bo`g`inlarini o`zaro bog`laganligi, yaxlitligi. Faoliyatga yo`naltirilgan yondoshuv. Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lim oluvchining faoliyatini aktivlashtirish va intensivlashtirish, o`quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo`naltirilgan ta'limni ifodalaydi.

Dialogik yondoshuv. Bu yondoshuv o`quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o`z-o`zini faollashtirishi va o`z-o`zini ko`rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi. Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish. Demokratik, tenglik, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

Muammoli ta'lim. Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta'lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni obyektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo'llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta'minlanadi.

Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo'llash - yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o`quv jarayoniga qo'llash.

O'qitishning usullari va texnikasi. Ma'ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallash), muammoli ta'lim, keys-stadi, pinbord, paradoks va loyihalash usullari, amaliy ishlar. O`qitishni tashkil etish shakllari: dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o`zaro o`rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.<sup>5</sup>

<sup>5</sup> A.Gochbakarov "Rubob prima instrumental performance" Music "T. 2015.


O'qitish vositalari: o'qitishning an'anaviy shakllari (garslik, ma'ruza matni) bilan bir qatorda – kompyuter va axborot texnologiyalari.

Kommunikatsiya usullari: tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o`zaro munosabatlar.

### TAHLILLAR VA NATIJALAR.

Rubob prima cholg'usining dastasi yigirma to'rtta metall plastinkalar bilan bo'lingan bo'lib, ular orasidagi o'zaro masofa-parda deb yuritiladi. Pardalar sozning bosh qismidan kosasiga qarab sanaladi. 2, 5, 7, 10, 12, 14 raqamli pardalarga o'ziga xos bo'lган turli ko'rinishdagi plastmassa yoki sadafdan ishlangan bezak- belgilar o'rnatilgan bo'lib, ular soz dastasida notalar joylashishini aniqlashda yordam beradi. Rubob prima to'rtta torli cholg'u bo'lib, birinchi va ikkinchi torlar po'latdan silliq yasalsa, uchinchi va to'rtinchi torlar po'lat torga o'ralgan holatda tayyorlanadi. Amaliyotda birinchi tor-0.24mm; ikkinchi tor-0.28mm; uchinchi tor asosi-0.30mm, o'ralgani- 0.70mm; to'rtinchi tor asosi-0.45mm, o'ralgani-0.95mm qalinlikda.

Cholg'u ijrochiligidagi musiqiy ta'lim uzviyligini ta'minlash Providing the integrity of music education in instrumental performance tayyorlanadi. Cholg'u sozining tuzilishini o'rganish ikkinchi qadamlar bo'lsa, uning sozlanishi uchinchi qadamdir. Rubob prima cholg'usi quyidagicha sozlanadi: Rubob prima cholg'usi kvinta intervali bo'yicha sozlanadi.(1-jadval)

**1-jadval****1-jadval.Rubob prima cholg'usi kvinta intervali bo'yicha sozlanishi****XULOSALAR.**

Guvohi bo'lib turganingizdek, nazariya va amaliyot bir-biriga chambarchas bog'liq. Ushbu o'rganganlarmiz nazariyaning boshlanishi hisoblanadi. Bundan tashqari o'r ganuvchi musiqa nazariyasini ham bilishi zarur. Musiqa nazariyasini bilmay turib, cholg'uda biror bir asar ijro qilib bo'lmaydi. Hozirgi kunda o'qituvchilardan nazariya va amaliyotni birga o'rgatish lozimligi talab etilyapti xolos. Buning uchun esa ta'kidlab o'tilganidek, ushbu metodikani qo'llashni poydevorlarimizdan boshlashimiz lozim.

«Cholg`u ijrochiligi» fanini o`zlashtirish natijasida talabalar quyidagi bilim, ko`nikma va tasavvurlarga ega bo'lishi lozim:

- Cholg`u ijrochiligi san'atining yaratilish tarixi, cholg`ushunoslikning nazariy va amaliy tamoyillari, ijro diapozoni, ularning xususiyatlarini bilishi kerak;
- Cholg`u ijrochiligidagi ijro etish jarayoni, repertuarlarini optimal tanlash, ijro texnikasi va ijro xususiyatlariga ko`ra asarlarni tanlab ajratib olish ko`nikmalariga ega bo`lish kerak;
- Cholg`u ijrochiligi va mutaxassisligi fani talabalar tanlagan asarlarni qoidalar asosida ijro etish xususiyatiga ko`ra, falsh ijrosiga yo`l qo`yilmasdan,

alohida ishslash va cholg`u ijrochiliga rahbarlik qilib, boshqara olish malakalariga ega bo`lishi kerak.

Xulosa o'rnida shuni ayta olamanki, o'quvchilarining cholg`u ijrochiligidagi amaliy va nazariy bilimlarini egallashida o'qituvchi juda muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi qanchalik darsni nazariyaga bog'lab qiziqarli o'tsa, o'quvchilarda amaliy ko'nigmalar ko'proq shakllanadi. Bunday metodikani qo'llab darsslarni olib borsak, yurtimizda san'at va madaniyat sohasi yanada gullab yashnayveradi albatta.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan on additional measures for further development of culture and arts PQ-112
- 2.A.Petrosyans "Cholg`ushunoslik" 3rd edition T. 2012
- 3.A.Tashmatova "Catalog of the Museum of Musical Instruments" "Science" T. 2016
- 4.O.Akbarov. "Pedagogical practice" "Istiqlol" T. 2015
- 5.A.Gochbakarov "Rubob prima instrumental performance" Music "T. 2015.